

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ALOQA, AXBOROTLASHTIRISH VA
TELEKOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI DAVLAT
QO'MITASI**

**TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
NUKUS FILIALI**

KOMP'YUTER INJINIRING FAKUL'TETI

“AXBOROT TA'LIM TEXNOLOGIYALARI” KAFEDRASI

«Kasb ta'limi» yunalishining 4- kurs talabasi

BEGENOVA DILARAM KESIKBAEVNANING
«Ikkita kubaturli formulalarni bir funktsiya sinfida sonli taqqoslash»
mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Kafedra mudiri:

f.-m.f.n. Sh. Allamuratov

Ilmiy raxbar:

f.-m.f.n. Sh. Allamuratov

Bitiruv malakaviy ishi kafedradan dastlabki himoyadan o'tdi
___ sonli bayonnamasi «___» _____ 2014 yil

Nukus-2014

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ALOQA, AXBOROTLASHTIRISH VA
TELEKOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI DAVLAT
QO'MITASI**

**TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
NUKUS FILIALI**

KOMPYUTER INJINIRINGI FAKULTETI

«AXBOROT TA'LIM TEXNOLOGIYALARI» KAFEDRASI

TACDIQLAYMAN

Kafedra mudiri _____

« ____ » _____ 2014 .y.

Begenova Dilaram Kesikbaevnaning
«**Ikkita kubaturli formulalarni bir funkciya sinfida sonli
taqqoslash**» mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga

VAZIFA

Bitiruv malakaviy ishning mavzusi' TATU NF-ning « ____ » _____ 2014y
buyrug'i bilan tasdiqlandi.

Ishni topshirish muddati: « ____ » _____ 2014-yil.

Berilgan ishga tegishli ma'lumotlar: diplom praktikasi materiallar', ma'ruza
materiallari', ilmiy adabiyotlar va Internet materiallari.

Bitiruv malakaviy ish mazmuni':

Kirish.

§1. Oddiy kvadratur formulalar

§2. Teylor formulasi

§3. Kvadraturalar nazariyasidagi ekstremal masalalar va ularni echish

§4. Kubatur formula haqida tushincha

§5. Simpsonning kubatur formulasi

§6. Ikki kubaturali formulani bir funktsiya sinfida sonli taqqoslash

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar

Vazifa berilgan sana

« ____ » _____ 2014-yil.

Ilmiy raxbar _____

Vazifani oldi _____

Bitiruv malakaviy ishi paragraflar bo'yicha maslaxatchilar.

Paragraflar	Maslaxatchi	Imzo, sana	
		Vazifani berdi	Vazifani qabulladi
1	Allamuratov Sh.Z		
2	Allamuratov Sh.Z		
3	Allamuratov Sh.Z		
4	Allamuratov Sh.Z		
5	Allamuratov Sh.Z		
6	Allamuratov Sh.Z		

Ishni bajarish rejasi:

№	Bob nomi	Bajarish muddati	Ilmiy raxbar (maslaxatchi imzosi')
1.	Oddiy kvadratur formulalar	12.11.2013	
2.	Teylor formulasi	12.12.2013	
3.	Kvadraturalar nazariyasidagi ekstremal masalalar va ularni echish	12.01.2014	
4.	Kubatur formula haqida tushincha	12.02.2014	
5.	Simpsonning kubatur formulasi	12.03.2014	
6.	Ikki kubaturali formulani bir funktsiya sinfida sonli taqqoslash	12.04.2014	
7	POWER POINT dasturida dokladning slaydini yaratish	12.05.2014	

Bitiruvchi _____

«____»_____2014 -yil.

Ilmiy raxbar _____

«____»_____2014 -yil.

АННОТАЦИЯ

В данной выпускной квалификационной работе рассмотрены обыкновенные квадратурные и кубатурные формулы. Кроме того был сравнен две кубатурные формулы в одном классе функции двух переменных.

ANNOTATSIYA

Mazkur bitiruv malakaviy ishida oddiy kvadratur va kubatur formulalar qaralgan. Bundan tashqari ikkita kubatur formula ikki uzgaruvchili bir funktsiya sinfida sonli taqqoslangan.

SUMMARY

In the given final qualifying work are considered ordinary squarings and cubages of the formula. Besides was compared two cubages of the formula in one class of function two variable.

Mundarija

Kirish.....	6
§1.Oddiy kvadratur formulalar.....	10
§2. Teylor formulasi.....	19
§3. Kvadraturalar nazariyasidagi ekstremal masalalar va ularni echish.....	21
§4. Kubatur formula haqida tushincha.....	30
§5. Simpsonning kubatur formulasi.....	34
§6. Ikki kubaturali formulani bir funktsiya sinfida sonli taqqoslash.....	37
Xulosa.....	40
Foydalanilgan adabiyotlar.....	42
Texnika xavfsizligi qoidalari.....	43

Kirish


Mavzuning dolzarbligi. Aniq integrallarni taqribiy hisoblash formulalari bo'lgan to'g'riburchaklar, trapetsiya va parabolalar formulasini biz akademik litsey matematika kursidan bilamiz. Bular kvadratur formulalar deb atalib tug'riburchaklar va trapetsiyalar formulası birinchi darajali ko'phadlar uchun aniq, parabolalar formulası uchinchi darajali ko'phadlar uchun aniq formula bo'ladi. Kubatur formulalar esa qosh integrallarni taqriybiy hisoblashga keltiriladi. Shu bois karrali integrallar uchun aniq kubatur formulalar qurish dolzarb masalalarning biri bo'lib qoladi.

Tadqiqot obyekti. Bir va ikki karrali aniq integrallar bitiruv malakaviy ishining tadqiqot obyektidir.

Bir va ikki karrali aniq integrallar uchun kvadratur va kubatur formulalar qurish usullari yetarlicha mufassal [1,2,4-8] adabiyotlarda keltirilgan.

Ishning amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishidan «Hisoblash matematikasi» va «Hisoblash usullari» fanlaridan bo'ladigan amaliy mashg'ulotlarda, seminar mashg'ulotlarida, bir va ikki karrali aniq integrallarni kuphadlar bilan yaqinlashtirish bilan bog'liq tanlov fanlari mashg'ulotlarida foydalanish mumkin.

Biz akademik litseydan algebra kursidan qandaydir musbat uzliksiz $f(x)$ funksiyasini $[a,b]$ oralig'ida taqribiy integrallashni bilamiz. Ularning eng oddiysi asosi $[a,b]$ kesmada bo'lgan, balandligi $f\left(\frac{a+b}{2}\right)$ bo'lgan $f'(x)$ funksiyasining grafigining o'rta nuktasi bo'lgan $\frac{a+b}{2}$ tug'riburchaklar formulası.



rasm-1.


Shunday qilib biz

$$\int_a^b f(x)dx \approx (b-a) f\left(\frac{a+b}{2}\right) \quad (1)$$

Taqribiy kvadraturalar formulasini paydo etamiz. U hohlagan uzluksiz funktsiya uchun qiymatga ega.

Agar $f(x)$ funktsiyasi erikli $Ax+B$ ko'rinishdagi chiziqli funktsiya bo'lsa bu erda A va B doimiy u holda chap tarafi ung tarafiga teng bo'ladi. Shunga bog'lik bizning taqribiy kvadratur formulamiz hohlagan erikli chiziqli $f(x)$ funktsiyasi uchun aniq deb aytamiz.

Biz eng oddiy tug'riburchakli kvadratur formulasini ko'rib chiqdik. Ozingina marakkabroq bu trapetsiyalar formulasi bo'lib topiladi. $f(x)$ manfiy aniqlangan holda aniq integral yon tarafi $x=a$, $x=b$ tug'rilar bilan tepadan grafikning AV xordasi bilan chegaralangan trapetsiyaning yuziga teng son bilan almashtiriladi.



rasm-2.

Shunday qilib trapetsiyalarning kvadratur formulasi quydagicha taqribiy formula yordamida aniqlanadi.

$$\int_a^b f(x)dx \approx \frac{1}{2}(b-a)[f(a) + f(b)] \quad (2)$$

Ushbu formula xoxlagan uzluksiz erikli funktsiya uchun urinli. (2) kvadratur formula tug'riburchaklar formulasiga uxshash lekin $y=Ax+B$ kurinishidagi chiziqli funktsiyalar uchun urinli. Biz praktikada keng tarqalgan yana bir kvadratur formula – Simpson formulasi bilan tanishamiz. U funktsiya musbat aniqlanganda uning integrali quydan ox uqi bilan yon taraflardan $x=a$, $x=b$ tug'ri chiziqlari bilan tepadan ikkinchi tartibli parabola bilan chegaralangan yuza bilan

beriladi. Funktsiya grafigi abtsissalari, $\frac{a+b}{2}$, b nuqtalardan o'tadi. U formula quyidagi kurinishga ega.

$$\int_a^b f(x)dx \approx \frac{b-a}{6} \left[f(a) + 4f\left(\frac{a+b}{2}\right) + f(b) \right] \quad (3)$$

Simpson formulasini olish usulidan u

$$P_2(x) = a_0 + a_1x + a_2x^2 \quad (4)$$

ko'rinishidagi barcha ko'phadlar uchun aniq ekanligi kelib chiqadi.

Bu ko'phadlarning grafiklari oy uqiga parallel yunaltirilgan mumkin bo'lgan parabolalardan iborat. Simpson formulasi haqiqattan ham juda yaxshi sababi u barcha ikkinchi tartibli ko'phadlar uchun aniqlanib quymastan

$$P_3(x) = a_0 + a_1x + a_2x^2 + a_3x^3$$

Ko'rinishdagi barcha ko'phadlar uchun ham aniq bo'lib hisoblanadi. Haqiqattan ham biz P_3 ni

$$P_3(x) = P_2(x) + a_3x^3$$

ko'rinishida yozishimiz mumkin. Bu erda $P_2(x)$, (4) tenglik bilan aniqlanadi.

U holda

$$\int_a^b P_3(x)dx = \int_a^b P_2(x)dx + a_3 \int_a^b x^3dx = \int_a^b P_2(x)dx + \frac{a^3}{4}(b^4 - a^4)$$

Lekin bizga

$$\int_a^b P_2(x)dx = \frac{b-a}{6} \left[P_2(a) + 4P_2\left(\frac{a+b}{2}\right) + P_2(b) \right]$$

ekanligi belgili. Lekin ikkinchi taraftan $\frac{a^3}{4}(b^4 - a^4)$ qiymatin formula kurinishda

$$\frac{a^3}{4}(b^4 - a^4) = \frac{b-a}{6} \left[(a_3x^3)_{x=a} + 4(a_3x^3)_{x=\frac{b+a}{2}} + (a_3x^3)_{x=b} \right]$$

yozish mu'mkin.

Bundan

$$\int_a^b P_3(x)dx = \frac{b-a}{6} \left[P_3(a) + 4P_3\left(\frac{a+b}{2}\right) + P_3(b) \right]$$

kelib chiqadi.

Biz uch kvadratur formula ko'rib o'ttik. Dastlabki ikkisi tug'riburchaklar va trapetsiyalar formulasi-birinchi darajali ko'phadlar uchun aniq. Simpson formulasi uchinchi darajali ko'phadlar uchun aniq.

Ushbu konkret keltirilgan misollar bilan biz chegaralanamiz.

Ishning tuzilishi.

Ushbu bitiruv malakaviy ish kirish va olti paragraftan iborat bulib, birinchi paragraf oddiy kvadratur formulalarga bag'ishlangan bo'lib eng oddiy tug'riburchakli, trapetsiyalar va Simpson formulalari to'liq keltirilgan. Ikkinchi paragraf Teylor va Makloren formulasiga bag'ishlangan. Uchinshi paragrafta kvadraturalar nazariyasindagi ekstremal masalalar va ularni echishdagi ayrim natijalar va ularning qo'llanilishi haqida aytib utiladi. To'rtinchi paragrafta kubatur formulalar haqida tushincha beriladi.

Beshinchi paragrafta Simpsonning kubatur formulasi keltiriladi va bir nechta misollar bilan izohlanadi. Oxirgi oltinchi paragrafta esa ikki kubaturli formula bir funktsiya sinfida sonli taqqoslanadi va unga misol ko'rsatiladi.

§1. Oddiy kvadratur formulalar

Biz uch kvadratur formulani ko'rib o'tamiz.

Agar $f(x)$ funksiyasi formula yoki tablitsa ko'rinishida berilsa u holda $\int_a^b f(x)dx$

ning taqribiy qiymatin topish uchun quydagi amallarni bajaramiz.

a) $[a, b]$ integrallash intervalin $x_1, x_2, \dots, x_{n-1}$ nuktalar yordamida n bo'lakka

ajratamiz. Bu erda $h = \frac{b-a}{n}$ odim.

b) $y=f(x)$ funksiya qiymatin har bir nuktada

$$y_0=f(a), y_1=f(x_1), \dots, y_{n-1}=f(x_{n-1}), y_n=f(b)$$

hisoblaymiz.

v) Taqribiy kvadratur formulalarning biridan foydalanamiz.


q) Tug'riburchaklar formulasi.

$$\int_a^b f(x)dx \approx h[f(a) + f(x_1) + \dots + f(x_{n-1})] = h \sum_{i=0}^{n-1} f(x_i) \quad (5)$$


yoki

$$\int_a^b f(x)dx \approx h[f(x_1) + f(x_2) + \dots + f(x_n)] = h \sum_{i=1}^n f(x_i) \quad (6)$$

Geometrik nazardan bu formulalarga quydagi chizilma mos keladi.



rasm-3.



rasm-4.


Tug'riburchaklar formulasining xatoligi $\delta(n) \leq \frac{(b-a)^2}{2n} \cdot y'_{\max}$

Bu erda $y'_{\max}$, $[a, b]$ -intervaldagi $|y'|$ ning eng katta qiymati.

2) Trapetsiyalar formulasi

$$\int_a^b y dx \approx h \left[\frac{y_0 + y_n}{2} + y_1 + y_2 + \dots + y_{n-1} \right] = h \left(\frac{y_0 + y_n}{2} + \sum_{i=1}^{n-1} y_i \right) \quad (7)$$

Geometrik jihatdan egri chiziqli trapetsiyaning yuzasi shtrixlangan trapetsiyaning yuzasi bilan almashtiriladi.



rasm-5.


Trapetsiyalar formulasining xatoligi $\delta(n) \leq \frac{(b-a)^3}{12n^2} \cdot y''_{\max}$ bu erda $y''_{\max}$, $[a, b]$ intervaldagi $|y''_{\max}|$ ning eng katta qiymati.

3) Simpson formulasi.

Agar n -juft bo'lsa

$$\int_a^b y dx \approx \frac{h}{3} [y_0 + y_n + 4(y_1 + y_3 + \dots + y_{n-1}) + 2(y_2 + y_4 + \dots + y_{n-2})] \quad (8)$$

Geometrik jixattan bu formula buyicha har bir vertikal $x_i P_i P_{i+2} x_{i+2}$ yul abtsissasi $x_i, x_{i+1} = x_i + h, x_{i+2} = x_i + 2h$ nuqtalaridan o'tuvchi $y = \alpha x^2 + \beta x + \gamma$ parabola dugalari bilan almashtiriladi.



rasm-6.

Simpson formulasining xatoligi $\delta(n) \leq \frac{(b-a)^5}{180n^4} \cdot y^{IV}_{\max}$ bu erda $y^{IV}_{\max}$, $[a, b]$ intervaldagi $|y^{IV}_{\max}|$ ning eng katta qiymati.

Agar bo'linmalar soni qancha ko'p bo'lsa kvadraturalik taqribiy formulaning aniqligi shuncha yuqari bo'ladi.

Birdek n larda (7) formula (6) dan aniq, (8) formula esa (7) dan aniqroq bo'ladi.

Barcha m chi darajali

$$P_m(x) = a_0 + a_1x + a_2x^2 + \dots + a_mx^m$$

Ko'phadlar uchun aniq bo'lgan kup kvadraturali formulalar tuzish mumkin.

Unga asos qilib Lagranjning klassik interpolyatsion ko'phadini olamiz.


$[a, b]$ kesmasin erikli $m+q$ nuktaga bo'lamiz.

$$a \leq x_0 < x_1 < \dots < x_m \leq b$$

Bu nuqtalarni biz tuginlar dep ataymiz.

Masalaning quyilishi:

Berilgan $f(x)$ funktsiyasi bilan ushbu nuktalarda aniq buladigan m-chi darajali $P_m(x)$ ko'phadini tuzish talab etilsin.



rasm-7.

Shunday qilib $f(x_k)=P_m(x_k)$, $(k=0,q,\dots,m)$ shartining bajarilishi talab etilsin. Izlanayotgan ko'phad Lagranj ko'phadi dep ataladi va quydagicha formula bilan yoziladi.

$$P_m(x) = \sum_{k=0}^m Q_m^{(k)}(x) f(x_k)$$

Bu erda Q_m^k m-chi darajali ko'phad bo'lib quydagi tenglik bilan aniqlanadi.

$$Q_m^k = \frac{(x-x_0)(x-x_1)\dots(x-x_{k-1})(x-x_{k+1})\dots(x-x_m)}{(x_k-x_0)(x_k-x_1)\dots(x_k-x_{k-1})(x_k-x_{k+1})\dots(x_k-x_m)}, \quad (k=0,1,\dots,m)$$

7-rasmda biz $f(x)$ -funktsiyasini va to'rtinchi darajali Logranj interpolatsion ko'phadini $f(x)$ bilan $[a, b]$ da 5 nuqtada ustma-ust tushadigan qilib chizdik.

Logranj interpolatsion ko'phadini m -chi darajali ko'phad uchun aniq bo'ladigan kvadraturali formula olish uchun qullash mumkin. Haqiqattan ham $f(x)$ - funktsiyasining $[a, b]$ kesmasida olingan aniq integrali taqribiy hisoblash uchun ushbu kesmada $f(x)$ ni interpolatsiyalovchi $P_m(x)$ ko'phadidan aniq integral olish etarli. Natijada biz

$$\int_a^b f(x)dx \approx \int_a^b P_m(x)dx = \sum_0^m f(x_k) \int_a^b Q_m^{(k)}(x)dx$$

Yoki
$$\int_a^b f(x)dx \approx \sum_0^m P_k f(x_k) \quad (9)$$

Bunda
$$P_k = \int_a^b Q_m^{(k)}(x)dx, \quad (k=0,1,\dots,m) \quad (10)$$

(9) taqribiy tenglik m -chi darajali ko'phad uchun aniq bo'lgan qandaydir kvadratur formulani aniqlaydi.

Ko'plagan klassik kvadratur formulalar shunday kelib chiqishiga ega.

Masalan agar (9), (10) formulalarda biz $m=2$, $x_0=a$, $x_1=(a+b)/2$, $x_2=b$ deb olsak Simpson formulasini olamiz. Aks holda agar $[a, b]$ da berilgan x_k nuqtalar va $P'_k (k=0,1,\dots,m)$ sonlar yordamida

$$\int_a^b f(x)dx \approx \sum_0^m P'_k f(x_k) \quad (11)$$

kvadratur formula m -chi darajali $P_m(x)$ ko'rinishidagi barcha ko'phadlar uchun olingan bo'lsa unda yuqarida keltirilgandek u Logranjning

$$f(x) = \sum_0^m Q_m^{(k)}(x) f(x_k)$$

interpolyatsion formulasidan kelib chiqadi. Haqiqattan ham (11) formula bilan birgalikta (9) kvadratur formulani qaraymiz, bu erda P_k sonlari (10) tenglik bilan aniqlanadi. Ikki formula ham birdek x_k tugunlar sistemasi bilan aniqlanadi, $(k=0,1,\dots,m)$ va ikkisi ham m -chi darajali ko'phad uchun aniq, xususiyl holda x^l , $(l=0,1,\dots,m)$ funktsiyasi uchun. Bundan quydagi tenglik bajarilishi kerak.

$$\sum_0^m (P_k - P'_k) \cdot x_k^l = 0, \quad (l = 0, 1, \dots, m), \quad (12)$$

(12) ning aniqlanuvchi har xil x_k , ($k=0, 1, \dots, m$) nuqtalari uchun Vandermond determinanti bo'lib noldan o'zgacha. U holda faqat $P_k = P'_k$, ($k=0, 1, \dots, m$) bo'lganda bajariladi. (9) kvadratur formula bilan birgalikta

$$\int_c^d F(u) du \approx \sum_0^m P_k^* f(x_k^*) \quad (9')$$

Formulasini kiritamiz. U quydagi xossalarga ega bo'lsin.

a) $P_k^* \cdot P_k = (d - c) : (b - a), \quad (k=0, 1, \dots, m)$

b) $x_0^* < x_1^* < \dots < x_m^*$ tugunlar $[c, d]$ kesmasiga tegishli va uni x_k , $[a, b]$ ni bo'lgandek nisbatta bo'ladi.

$$(x_0^* - c) : (x_1^* - c) : \dots : (x_m^* - c) = (x_0 - a) : (x_1 - a) : \dots : (x_m - a)$$

(9') formulasini biz (9) ga uqshash formula dep ataymiz. (9) va (9') uqshash formulalar bir vaqtning uzida m -chi darajali ko'phadlar uchun aniq. Haqiqattan ham agar $R(u)$, m -chi darajali ko'phad bo'lsa unda

$$R\left(c + \frac{d - c}{b - a}(x - a)\right)$$

m -chi darajali ko'phad. Shuning uchun

$$\begin{aligned} \int_c^d R(u) du &= \frac{d - c}{b - a} \int_a^b R\left(c + \frac{d - c}{b - a}(x - a)\right) dx = \\ &= \frac{d - c}{b - a} \sum_0^m P_k R\left(c + \frac{d - c}{b - a}(x_k - a)\right) = \sum_0^m P_k^* R(x_k^*) \end{aligned}$$

Yuqarida aytilganlardan va (9') kvadraturali formulaning birdan birligidan agar $x_0^*, x_1^*, \dots, x_m^* \in [c, d]$ tugunlar b) shartini qanoatlantirsa unda u a) shartini ham qanoatlantiradi.

Gaussning kvadraturali formulasi

Simpson va tug'ri burchaklar formulasidan kurganimizdek ko'phadning tugunlarin yaxshi saylab olganimizda Kvadratur formulaning aniqligi oshadi. Shuning uchun quydagicha optimizatsiyalik masalani qoyish mumkin.

Yuqori tartibli ko'phadlar uchun berilgan n -tugunida

$$J(f) = \int_a^b f(x)P(x)dx \approx \sum_{i=1}^n A_i f(x_i) \quad (13)$$

aniq kvadratur formula tuzing.

Bunday kvadratur formula Gauss formulasi deb ataladi. m-darajali P_m ko'phad uchun (13) ko'rinishdagi Kvadratur formula bor bo'lsin. Bunda $P(x)$ chekli $[a, b]$ kesmasida berilgan, integrallanuvchi og'irlik funktsiyasi, $f(x)$ etarli tekis deb xisoblanadi.

Qoyilgan masalani echish uchun, tugunlarining soni n berilganda, (13) formulaning parametrlarin x_i ($i = \overline{1, n}$) tugunlarin va A_i ($i = \overline{1, n}$) koefitsientlarin, u eng yuqori darajali ko'phad uchun aniq formula buladigan qilib saylab olish kerak. (13) formulasining belgisiz parametrlarining umumiy soni $2n$ ga teng bulganliktan, ushbu parametrlarni bir qiymatli aniqlash mumkin bo'lgan ko'phadning eng katta darajasi $2n-1$ ga teng buladi.

Sababi bunday ko'phadning koefitsientlarining soni ham $2n$ ga teng. Shuning uchun (13) formulaning algebraik aniqlik darajasi $m=2n-1$ ga teng buladi. Bunday formulalarni $P(x)=1$ holat uchun dastlab K.Gauss yasagan. Bunday doimiy og'irlikka ega Kvadratur formulalar, odatda, integral ostidagi funktsiyaning integrallash oralig'ida uzluksiz nuqtalari yuq va u yuqori tartibli tekislikka ega bulganda gina yuqori aniqlikni taminlaydi.

Mustaqil uzgaruvchini chiziqli turlantirish yuli bilan $[a, b]$ kesmasini hardoim $[-1;1]$ kesmasiga keltirish mumkin. Shuning uchun dastlab integrallash oraligi $[-1;1]$ bo'lgan xususiy holni kurib utamiz. Shunday qilib, dastlab eng yuqari algebraik aniqlik darajasiga ega.

$$\int_{-1}^1 f(t)dt \approx \sum_{i=1}^n A_i f(t_i) \quad (14)$$

ko'rinishidagi kvadratur formulani yasaymiz. Buning uchun uning t_i ($i = \overline{1, n}$) tugunlari va A_i ($i = \overline{1, n}$) koefitsientlarini, (14) formula eng yuqori $2n-1$ darajali barcha ko'phadlar uchun aniq formula bulish shartidan saylap olamiz.

(14) da aniq tenglikning bajarilishi uchun uning $f(t)=1,t,t^2,\dots,t^{2n-1}$ bulganda tug'ri tenglikka aylanishi zarurli va etarli.

Haqiqattan ham

$$\int_{-1}^1 t^k dt = \sum_{i=1}^n A_i t_i^k \quad (k=0,1,2,\dots,2n-1)$$

va $f(t) = \sum_{k=0}^{2n-1} C_k t^k$ deb uylab, quydagi tenglikka kelamiz`

$$\begin{aligned} \int_{-1}^1 f(t) dt &= \sum_{k=0}^{2n-1} C_k \int_{-1}^1 t^k dt = \sum_{k=0}^{2n-1} C_k \sum_{i=1}^n A_i t_i^k = \\ &= \sum_{i=1}^n A_i \sum_{k=0}^{2n-1} C_k t_i^k = \sum_{i=1}^n A_i f(t_i) \end{aligned}$$

Shunday qilib

$$\int_{-1}^1 t^k dt = \frac{1 - (-1)^{k+1}}{k+1} = \begin{cases} \frac{2}{k+1}, & k - \text{жычн} \\ 0, & k - \text{мак} \end{cases}$$

Tengliklarini hisobga olib, quyilgan masalani echish uchun t_i va A_i larni quydagi $2n$ tenglamalar sistemasidan aniqlash etarli.

$$\sum_{i=1}^n A_i = 2, \quad \sum_{i=1}^n A_i t_i = 0, \quad \sum_{i=1}^n A_i t_i^{2n-2} = \frac{2}{2n-1}, \quad \sum_{i=1}^n A_i t_i^{2n-1} = 0, \quad (15)$$

Bu chiziqli emas tenglamalar sistemasini odattagi usul bilan echish katta qiyinchiliklarga olib keladi. Lekin (15) sistemani eshish uchun quydagi yasalma usuldan foydalanish mumkin.

Buning uchun

$$f(t) = t^k P_n(t), \quad (k=0,1,2,\dots,n-1) \quad (16)$$

ko'phadni qaraymiz. Bundan $P_n(x)$, Lejandr ko'phadi. Bu ko'phadlarning darajalari $2n-1$ dan ortiq emas. Shuning uchun (15) sistemasi asosida (16) ko'phadlar uchun (14) formula buladi.

$$\int_{-1}^1 t^k P_n(t) dt = \sum_{i=1}^n A_i t_i^k P_n(t_i), \quad (k=0,1,2,\dots,n-1) \quad (17)$$

Ikkinchi taraftan, Lejandr ko'phadlarining ortogonallik xossasi buyicha $k < n$ bulganda quydagi tenglik urinli`

$$\int_{-1}^1 t^k P_n(t) dt = 0 \quad (k=0,1,2,\dots,n-1)$$

Shuning uchun

$$\sum_{i=1}^n A_i t_i^k P_n(t_i) = 0, \quad (k=0,1,2,\dots,n-1) \quad (18)$$

buladi. Agarda

$$P_k(t_i) = 0, \quad (i=0,1,2,\dots,n) \quad (19)$$

bo'lsa, unda (18) tenglik A_i larning xoxlagan qiymatida bajariladi. Shunday qilib, (14) kvadratur formulasining eng yuqori $m=2n-1$ algebraik aniqligiga erishish uchun, uning t_i tugunlari xisobida Lejandrning mos ko'phadining ildizlarini olish etarli. Lejandr ko'phadlarining ildizlari haqiqiy va har xil bulib, ular $(-1;1)$ oralig'ida yotadi.

(14) kvadratur formulasining t_i tugunlarin (19) tengliklari bajariladigan qilib saylab olib, ularning topilgan qiymatlarin (15) sistemaning dastlabki n tenglamasiga quyamiz. Shunda bu tenglamalar A_i koeffitsientlariga nisbatan n -chiziqli tenglamalar sistemasiga aylanadi. Musbat sistemaning determinanti Vandermond determinanti bo'ladi.

$$D = \prod_{i>j} (t_i - t_j) \neq 0$$

Shuning uchun ushbu sistemada A_i , $(i=\overline{1,n})$ koeffitsientlari bir qiymatli aniqlanadi.

Tugunlari t_i ($i=\overline{1,n}$) Lejandrning $P_n(t)$ ko'phadining ildizlari bulgan va A_i , $(i=\overline{1,n})$ koeffitsientlari (15) sistemaning dastlabki n tenglamasidan aniqlanadigan (14) formula Gaussning kvadratur formulasi deb ataladi.

Misol: Uch ordinata ($n=3$) berilgan holda Gaussning kvadratur formulasini yasang.

Echimi: Lejandrning uchinchi darajali ko'phadi

$$P_3(t) = \frac{1}{2}(5t^3 - 3t)$$

ko'rinishda yozilishi bizga malum. Ushbu ko'phadning korenlarini aniqlaymiz.

$$P_3(t) = \frac{1}{2}(5t^3 - 3t) = 0, \quad t(5t^2 - 3) = 0$$

$$t_1 = -\sqrt{\frac{3}{5}} = -0,7745; \quad t_2 = 0; \quad t_3 = \sqrt{\frac{3}{5}} = 0,7745$$

Tugunlarning bu topilgan qiymatlarini (15) tizimning dastlabki uchtagiga olib borib quysak A_1 , A_2 , A_3 koefitsientlarini aniqlash uchun, chiziqli tenglamalarning quydagi sistemasiga ega bo'lamiz:

$$\begin{cases} A_1 + A_2 + A_3 = 2 \\ -\sqrt{\frac{3}{5}}A_1 + \sqrt{\frac{3}{5}}A_2 = 0 \\ -\frac{3}{5}A_1 + \frac{3}{5}A_2 = \frac{2}{3} \end{cases}$$

Bundan $A_1 = A_3 = \frac{5}{9}$; $A_2 = \frac{8}{9}$ qiymatlari topiladi. Demak (14) formula asosida

$$\int_{-1}^1 f(t)dt = \frac{1}{9} \left[5f\left(-\sqrt{\frac{3}{5}}\right) + 8f(0) + 5f\left(\sqrt{\frac{3}{5}}\right) \right]$$

kvadratur formulasi kelip chiqadi Gaussning ushbu formulasining, darajalari $m=5$ tan ortiq bo'lmagan, barcha ko'phadlar uchun aniq formula bulishini oson tekshirip ko'rish mumkin.

Yuqorida ko'rsatilgan usul bilan, n ning har xil qiymatlariga mos, Gaussning aniq Kvadratur formulalarini keltirib chiqarish mumkin.

Gaussning Kvadratur formulasini qo'llashning naqulayligi, ularning tugunlari va koefitsientlarining, umumiy holda irratsional sonlar bulishiga bog'lik. Lekin, Gauss formulalarining bu kamchiligi, solishtirmali oz sondagi ordinatlarni foydalanganda, ularning yuqori aniqlikni ta'minlashi bilan yopiladi.

§2. Teylor formulasi

Qandaydir oraliqta aniqlangan $y=f(x)$ funktsiyasini qurib chiqaylik. Bu funktsiya $y'=f'(x)$ birinchi tartibli hosiladan boshqa $(n+1)$ tartibkacha hosilalarga ega bo'lsin.

$$f''(x) = (f'(x))'; \quad f'''(x) = (f''(x))'; \quad f^{(k+1)}(x) = (f^{(k)}(x))'$$

$y=f(x)$ funktsiyasining grafigiga yurg'azilgan urinma $x=a$ nuqtada

$$y-f(a)=f'(a)(x-a) \quad \text{yoki} \quad f(x) = f(a)+f'(a)(x-a) \quad (20)$$

ko'rinishga ega.

$$P_1(x) = f(a)+f'(a)(x-a) \quad (21)$$

Birinchi darajali ko'phad $x=a$ nuqtada $f(x)$ ning qiymati bilan ustma-ust tushadi. $P_1(a)=f(a)$. (21) ko'phad $x=a$ nuqtadagi hosilasining qiymati $y=f(x)$ funktsiyaning hosilasining qiymati bilan tengday. Haqiqattan ham (21) tenglikdan $P'_1(x)=f'(a)$ demak $P'(a)=f'(a)$. (21) ning grafigi $y=f(x)$ funktsiyasiga $M_0(a, f'(a))$ nuqtada urinadi. Ikkinchi tartibli ko'phadni ham topish mumkin.

$$P_2(x) = f(a) + f'(a)(x-a) + \frac{f''(a)}{2}(x-a)^2 \quad (22)$$

U ham $x=a$ nuqtada $y=f(x)$ bilan tengday qiymatga ega. (22) ning grafigi $x=a$ nuqta atrofida $y=f(x)$ ga hali yam tig'izroq joylashadi.

Mayli $y=f(x)$ uchun $x=a$ nuqta atrofida $n+1$ tartibli uzluksiz hosilaga ega $P_n(x)$ ko'phadni topish talab etilsin yani

$$P_n(a) = f(a), \quad P'_n(a) = f'(a), P''_n(a) = f''(a), \dots, P_n^{(k)}(a) = f^{(k)}(a) \quad (23)$$

bo'lsin $P_n(x)$ ni quydagicha yozib olamiz.

$$P_n(x) = C_0 + C_1(x-a) + C_2(x-a)^2 + C_3(x-a)^3 + \dots + C_n(x-a)^n \quad (24)$$

$C_0, C_1, C_2, \dots, C_n$ koefitsientlarini (23) sharttan aniqlaymiz. Uning uchun uning hosilalarini aniqlaymiz.

$$P'_n(x) = C_1 + 2C_2(x-a) + 3C_3(x-a)^2 + \dots + nC_n(x-a)^{n-1}$$

$$P''_n(x) = 2C_2 + 2 \cdot 3C_3(x-a) + 4 \cdot 3C_4(x-a)^2 + \dots + n(n-1)C_n(x-a)^{n-2}$$

$$P_n^n(x) = n(n-1)(n-2)(n-3) \cdot \dots \cdot 3 \cdot 2C_n \quad (25)$$

(24) va (25) ka $x=a$ qiymatini qoyib

$P_n(a) = C_0, P'_n(a) = C_1, P''_n(a) = 2C_2, P'''_n(a) = 2 \cdot 3C_3, \dots, P_n^{(n)}(a) = n(n-1)(n-2)\dots 3 \cdot 2C_n$ ga ega bo'lamiz.

Ushbu tenglamalardan va (23) formuladan

$$C_0 = f(a), C_1 = f'(a), C_2 = \frac{f''(a)}{2}, C_3 = \frac{f'''(a)}{2 \cdot 3}, \dots, C_n = \frac{f^{(n)}(a)}{2 \cdot 3 \dots n}$$

(26) ga ega bulamiz.

Dastlabki m natural sonining ko'paytmasini $m! = 1 \cdot 2 \cdot 3 \dots m$ deb belgilab olsaq

$$C_0 = f(a), \quad C_m = \frac{f^{(m)}(a)}{m!} \quad (m = 1, 2, \dots, n)$$

deb yozish mumkin. Bu topilgan koeffitsientlarni (24) formulaga quysaq

$$P_n(x) = f(a) + \frac{f'(a)}{1!}(x-a) + \frac{f''(a)}{2!}(x-a)^2 + \frac{f'''(a)}{3!}(x-a)^3 + \dots + \frac{f^{(n)}(a)}{n!}(x-a)^n \quad (26)$$

$r_n(x) = f(x) - P_n(x)$ belgilash kiritaylik. U holda $f(x) = P_n(x) + r_n(x)$ yoki

$$f(x) = f(a) + \frac{f'(a)}{1!}(x-a) + \frac{f''(a)}{2!}(x-a)^2 + \dots + \frac{f^{(n)}(a)}{n!}(x-a)^n + r_n(x) \quad (27)$$

$r_n(x)$ - chamasi qoldiq a'zo deb ataladi. (27) formulada $r_n(x) = 0$ bo'ladi agar funksiya n darajali ko'phad bo'lsa.

$$f(x) = a_0 + a_1x + a_2x^2 + \dots + a_nx^n$$

hoxlagan bunday ko'phadni $x-a$ ning darajalari bo'yicha yoyish mumkin. Misol uchun $P_2(x) = x^2 - 5x + 8$ ni $x-1$ ning darajalari buyicha yoying.

$$P_2(x) = x^2 - 5x + 8, \quad P_2(1) = 4$$

$$P'_2(x) = 2x - 5, \quad P'_2(1) = 3$$

$$P''_2(x) = 2, \quad P''_2(1) = 2$$

$$P'''_2(x) = 0 \quad P_2(x) = 4 - 3(x-1) + \frac{2(x-1)^2}{2!} = (x-1)^2 - 3(x-1) + 4$$

(27) formulada $r_n(x)$ qoldiq a'zoni integral formada keltiramiz

$$r_n(x) = \frac{1}{(n-1)!} \int_0^x (x-t)^{n-1} f^{(n)}(t) dt$$

§3. Kvadraturalar nazariyasidagi ekstremal masalalar va ularni echish

Har xil kvadratur formulalarning kupturligi cheksiz ko'p. Ushbu paragrafta biz ayrim hollarda Kvadraturalik formulaga eng yaqin yaqinlashish beradigan ekstremal masalani echamiz.

Umumiy problema quydagidan iborat $[0, 1]$ da aniqlangan H funktsiyalar klasi va m natural son berilsin. Barcha

$$\int_0^1 f(x)dx \approx L(f) \quad (28)$$

Bunda

$$L(f) = \sum_{k=0}^{m-1} P_k f(x_k), \quad 0 \leq x_0 < x_1 < \dots < x_{m-1} \leq 1 \quad (29)$$

kvadratur formulalar ichidan f funktsiyaning

$$\sup_{f \in H} \left| \int_0^1 f dx - L(f) \right| \quad (30)$$

yuqargi chegarasi eng kichik bo'lsin. Shunday qilib, masala $[0,1]$ kesmasida $x_0, x_1, \dots, x_{m-1}$ tugunlarda $p_0, p_1, \dots, p_{m-1}$ og'irlikta yaqinlashish H funktsiyalar sinfida barcha yaqinlashishlar ichida eng yaxshi bo'lishi kerak.

Biz ushbu problemani kesimda ikkinchi tartibli hosilasi bilan chegaralangan f funktsiyalar sinfi uchun echamiz. Uning uchun

$$W_\alpha^{(r)}(M; a, b)$$

funktsiyalar sinfin kiritishdan boshlaymiz. U qo'shimcha quydagi shartlarni qanoatlantirsin.

$$f(\alpha) = f'(\alpha) = \dots = f^{(r-1)}(\alpha) = 0$$

$W_0^{(r)}(M; 0, 1)$ sinfiga tegishli har qanday $f(x)$ funktsiyasi

$$f(x) = \frac{1}{(r-1)!} \int_0^1 K_r(x-t) f^{(r)}(t) dt$$

bunda

$$K_r(u) = \begin{cases} u^{r-1}, & u \geq 0 \\ 0, & u < 0 \end{cases} \quad (31)$$

integral ko'rinishida yozilishi mumkin shuning uchun (28) kvadratur formula u yoki bu darajali ko'phadlar uchun aniq yoki aniq emas bo'lishiga qaramastan $P_{r-1}(x) \equiv 0$ deb olib quydagi tenglikka kelimiz.

$$\int_0^1 f dx - L(f) = \int_0^1 F_r(t) f^{(r)}(t) dt$$

Bu $W_0^{(r)}(M; 0, 1)$ sinfidan olingan barcha f funktsiyalar uchun tug'ri bo'ladi.

Bunda

$$F_r(x) = \frac{1}{(r-1)!} \left[\frac{(1-t)^2}{r} - \sum_0^{m-1} P_k K_r(x_k - t) \right]$$

Bundan

$$\begin{aligned} \sup_{f \in W_0^{(r)}(M; 0, 1)} \left| \int_0^1 f dx - L(f) \right| &= \frac{M}{(r-1)!} \int_0^1 \left| \frac{(1-t)^r}{r} - \sum_0^{m-1} P_k K_r(x_k - t) \right| dt = \\ &= \frac{M}{(r-1)!} \int_0^1 \left| \frac{u^r}{r} - \sum_0^{m-1} \lambda_k K_r(u - u_k) \right| du \end{aligned} \quad (32)$$

Bu erda

$$\lambda_k = P_{m-k-q}, \quad u_k = q - x_{m-k-q}, \quad (u_k < u_{k+q}) \quad (33)$$

Yuqarida quyilgan ekstremal masala $W_\alpha^{(r)}(M; a, b)$ sinfi uchun (33) integralning minimumini λ_k, u_k ($k=0, 1, \dots, m-1$) sistemasi uchun topishga tug'ri keladi.

Biz quydagicha natijaga kelimiz.

Teorema 1.

Barcha (28) ko'rinishdagi Kvadratur formulalar ichida

$$\int_0^1 f(x) dx \approx L(f) = \sum_0^{m-1} P_k^* f(x_k^*)$$

formulasi $W_0^{(r)}(M; 0, 1)$ sinfi uchun yagona va eng yaxshi bo'lib xisoblanadi.

Bu erda tugunlar va og'irlik quydagicha aniqlangan.

$$\left. \begin{aligned} x_k^* &= 4(k+1)\omega_m, \quad (k=0, 1, \dots, m-1) \\ \omega_m &= (\sqrt{3} + 4m)^{-1} \\ P_k^* &= 4\omega_m, \quad (k=0, 1, \dots, m-2) \\ P_{m-1}^* &= (2 + \sqrt{3})\omega_m \end{aligned} \right\} \quad (34)$$

Boshqacha aytganda quydagi tenglik urinli

$$\min_{L(f)} \max_{f \in W_0^r(M;0,1)} \left| \int_0^1 f dx - L(f) \right| = \max_{f \in W_0^r(M;0,1)} \left| \int_0^1 f dx - L_*(f) \right| = \frac{M\omega_m^2}{2}$$

Biz natijani $[0, 1]$ kesma uchun oldik $[0, 1]$ dan erikli $[\alpha, \beta]$ ga utkanda x_k^* tugunlar P_k^* og'irlikta $L=\beta-\alpha$ marotaba kattalashadi, yaqinlashishning aniq bahosi sinf uchun

$$\max_{f \in W_0^r(M;\alpha,\beta)} \left| \int_\alpha^\beta f dx - L_*(f) \right| = \frac{M l^3 \omega_m^2}{2}$$

bo'ladi. Olingan eng yaxshi kvadratur formula bitta kamchilikka ega, yani u kafolat berilgan $\frac{M\omega_m^2}{2}$ minimal bahoni barcha ikkinchi tartibli hosilalari chegaralangan funktsiyalar uchun bermaydi, faqat shularning ichida

$$f(0)=f'(0)=0 \quad (35)$$

boshlang'ich shartni qanoatlantiruvchisiga gina beradi.

Shunday qilib, agar biz olingan formuladan foydalanmoqchi bo'lsak va $f(x)$ funktsiyasi (35) formulani qanoatlantirmasa, u holda biz $f(x)$ ni $x=0$ nuqtasi atrofida Teylor formulasiga yayib

$$f(x)=f(0)+xf'(0)+\varphi(x)$$

va $f(0)+xf'(0)$ deb o'z oldiga integral olib keyin $\varphi(x)$ ga Kvadratur formulani qo'llaymiz. Faqat shunda gina yuqorida keltirilgan $\frac{M\omega_m^2}{2}$ bahoda yaqinlashishni olish mumkin.

Olingan Kvadratur formulaning qandaydir o'zgarishlari yangi Kvadratur formulalarning paydo bo'lishiga olib keladi.

Misol`

$$\int_{-1}^{+1} f dx \approx \sum_{-m}^m \mu_k f(\xi_k) \quad (36)$$

kvadratur formulani kurib utaylik bu erda

$$\mu_k = \mu_{-k} = P_{k-1}^*, \quad -\xi_{-k} = \xi_k = x_{k-1}^*, \quad (k=1,2,...m)$$

$\mu_0 = 4\omega_m$, $\xi_0 = 0$ Shunday qilib bu toza kvadratur formula $[-1, 1]$ kesmasida aniqlanib, oldingi formulaga bir tugun $\xi_0 = 0$ va simmetrizatsiyalash yuli bilan olinadi. Bu erda

$$\mu_0, \quad \sum_{-m}^m \mu_k = 2$$

